

## O'QUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

*Orifboyeva Dilnoza Sattarovna*

*Namangan viloyati Uychi tumani*

*23- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10060183>

**Abstract:** *This article provides information on the effectiveness of forming students' creative abilities.*

**Key words:** *Personality, talent, knowledge, skill, ability, creative ability, intellect.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning samaradorligi borasida ma'lumotlar keltiriladi.*

**Kalit so'z:** *Shaxs, iqtidor, bilim, ko'nikma, qobiliyat, ijodiy qobiliyat, intellekt.*

### **Introduction**

Hozirgi vaqtda maktabdagi har bir ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni hayotda muvaffaqiyatli shaxs bo'lishga tayyorlashni maqsad qilgan va XXI asr ko'nikmalari bilan ta'minlovchi yangi vazifani bajaradi. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va bunda foydalaniladigan metod va vositalar mavzusi ham bundan mustasno emasdir.

Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar kelajak avlodning ertangi kuni, uning farovonligi yo'lida qo'yilayotgan tamal toshi desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning yoshlar bilan bo'lgan uchrashuvlarida "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", — deya ta'kidlaganlar.

Aytishimiz mumkinki, bugungi yosh avlodni rivojlanishida iqtidori, qobiliatlari, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etish, bunda mamlakatimizda qad ko'tarayotgan zamonaviy innovatsion maktablar faoliyatini kengaytirish, umumta'lim maktab bitiruvchilarini savodxonlik darajasini yanada oshirish masalalari davlatimiz siyosati oldidagi muhim vazifalarga aylanib bormoqda.

Iqtidorli bolalar-yurt kelajagi! Zero, shunday ekan bolalardagi iqtidor, qobiliyat, salohiyatini rivojlantirishda bevosita ta'lim muassasasi, pedagog va oila hamkorligining ahamiyati katta.

Pedagogik va psixologik manbalarda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, qobiliyat insonning psixologik hususiyati bo'lib, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash bevosita mana shu xususiyatlarga bog'liq hisoblanadi.

Qobiliyatli shaxsning ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Bevosita qobiliyat-ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishi jarayonida shakllanadi. Hamma maxsus qobiliyatlarni, inson faoliyatining asosiy turlarini uchga: fan, san'at, amaliyotga ajratish mumkin. Shunga binoan qobiliyatni milliy, badiiy va amaliy deb

klassifikasialash mumkin. Bu turlarning har biri o'z navbatida yana ma'lum turlarga bo'linishini ko'rish mumkin. Bulardan

- Ilmiy qobiliyat  Badiiy qobiliyat
- Amaliy qobiliyat
- Nazariy va amaliy qobiliyatlar  O'quv qobiliyatlari
- Ijodiy qobiliyatlar

Amerikalik tadqiqotchi J. Gildford iste'dod nazariyasiga katta hissa qo'shgan olimlardandir. Olim divergent fikrlashning tarkibiy qismlarini (tezlik, o'ziga xoslik, moslashuvchanlik, aniqlik) ishlab chiqqan va ularning barchasi iqtidorli maktab o'quvchilarini rivojlantirish, o'qish va o'qitish sohasida amaliy faoliyatga yangi o'zgartirishlar kiritishga imkon berganini ta'kidlab o'tish joiz.

Taniqli amerikalik olim P. Torrents o'z shogirdlarini kuzatib, yaxshi o'qiydigan bolalar va yuqori darajadagi IQga ega bo'lgan bolalar ijodiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonmaydi degan xulosaga kelishdi. Aniqroq aytganda, bu shartlar mavjud bo'lishi mumkin, ammo ular yagona shart emas deydi, hamda o'zi ishlab chiqqan iqtidor kontsepsiyasida uchlik mavjudligi ta'kidlaydi. Ular:

- ijodkorlik
- ijodiy mahorat;
- ijodiy motivatsiya.

Uning tushunishicha, ijodkorlik - bu shaxsning to'liq bo'lmagan yoki noaniq bo'lgan vaziyatda yuzaga keladigan keskinlikni yengillashtirish uchun kuchli ehtiyojidan kelib chiqadigan tabiiy jarayondir. Iqtidorli bolalarni aniqlashda u tomonidan yaratilgan o'ziga xos iqtidor kontsepsiyasi asosida yaratilgan iqtidor va ijod uslublari butun dunyoda keng qo'llaniladi.

Shaxsni ijodiy rivojlantirishda tadqiqotchilar turli xil psixologik maktablar va yo'nalishlarning yutuqlariga murojaat qilishadi. Bugungi kunda insonning ijodiy salohiyati va ijodiy rivojlanish sur'atini belgilaydigan ko'plab ichki va tashqi omillar allaqachon ma'lum. Avvalo, bularga shaxsning individual tipologik hususiyatlari, ayniqsa intellekt va boshqa yuqori aqliy funktsiyalar, shuningdek, bir qator aqliy operatsiyalarning shakllanish darajasi kiradi. Barcha intellektual qobiliyatlar qaysidir darajada ijodiydir, lekin birinchi navbatda bu fikrlash qobiliyatining ajralib chiqishi deya ta'riflanadi. Aksariyat mualliflar ijodkorlikni baholash mezoni sifatida yuqori mahsuldorlikni ta'kidlashadi. Shunday qilib, biron bir universal texnikani yaratish mumkin bo'lmagani kabi ijodiy rivojlanish darajasini to'la-tokis aniqlash mumkin emas, bu ham nisbiylikka asoslanadi. Ushbu ko'p o'lchovli hodisa kompleks yondashuvni talab qiladi.

Qobiliyatlar -samarali faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart bo'lgan shaxsning individual psixologik hususiyati hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda qobiliyat tushunchalari juda katta, ammo eng mashhuri taniqli amerikalik olim J.Renzulli tomonidan ishlab chiqilgan qobiliyat tushunchasi bo'lib, unga ko'ra qobiliyat uch xususiyatning kombinatsiyasi hisoblanadi:

- intellektual qobiliyatlar (o'rtacha darajadan yuqori);
- Ijodkorlik
- qat'iyatlilik (vazifaga yo'naltirilgan motivatsiya).

Ijodiy qobiliyat - bu muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan shaxsiy hususiyatdir. Ijodiy qobiliyat umumiy va maxsus bo'lishi mumkin.

Ijodkorlikni aniqlashda test sinovlaridan foydalanishadi. Ijodkorlik testi- asosan og'zaki, grafik, raqamli materiallar yordamida harakatlarni amalga oshirishga asoslangan insonning ijodiy qobiliyatini aniqlashning standartlashtirilgan usuli hisoblanadi.

Olimlar tomonidan shaxsning ijodiy rivojlanish darajasini aniqlash uchun diagnostika usullaridan foydalanishning quyidagi ketma-ketligini taklif etiladi:

1. Kuzatish
2. Eksperimental vaziyatlarni yaratish
3. Test

O'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi ijodiy qobiliyatlarning tabiati va namoyon bo'lishini belgilaydigan juda ko'p turli xil omillarga bog'liq. Asosan, ushbu omillarni uchta eng umumiy guruhga birlashtirish mumkin.

- Birinchi guruhga ijodiy shaxsning shakllanishini belgilaydigan tabiiy moyilliklar va individual hususiyatlar kiradi.
- Ikkinchi guruh ijtimoiy muhitning ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi va namoyon bo'lishiga ta'sirining barcha shakllarini o'z ichiga oladi.
- Uchinchi guruh - bu ijodkorlik rivojlanishining faoliyatning tabiati va tuzilishiga bog'liqligi.

Ijodkorlik o'ziga xos hususiyatdir va u har bir bolada mavjud. Bundan tashqari, ijodkorlik bitta omil sifatida emas, balki har bir shaxsning ma'lum bir odamda turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil qobiliyatlarning birikmasi sifatida ko'rib chiqiladi. Shuning uchun psixologlar hamda pedagoglar uchun barcha bolalar potentsial ijodiy bo'lishi kerak. Pedagog uchun bolaning o'ziga xos individual ijodini sezish va uni rivojlantirishga intilish juda muhimdir.

Ijodkorlik faoliyat mobaynida rivojlanadi, ko'plab tadqiqotchilar ijodiy bo'lmagan tafakkur uslubining shakllanishining sababini o'quv jarayonida bolalar doimiy ravishda "yopiq turdagi" vazifalar bilan, ya'ni berilgan elementlar to'plamiga va yagona to'g'ri yechimga ega bo'lgan vazifalarda deb ta'kidlashadi. Bolalarda mashg'ulotlar natijasida ilgari shakllangan bilim va faoliyatga asoslangan fikrlash turi shakllanadi. Ijodiy qobiliyatlar, agar bola "Ochiq turdagi" vazifalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lsa, shakllanishi mumkin. Ushbu vazifalar yechim usulini tanlashda to'liq mustaqillikni anglatadi va muammolarga har qanday yechimni taklif qilishda bolaga ijodiy yondashish imkoniyatini beradi.

Ijodiy qobiliyat osonroq va tez-tez, aniqrog'i, bola muayyan moyilliklarga ega bo'lgan faoliyatda namoyon bo'ladi. Shu sababli, bolalar iloji boricha ko'proq tadbirlarga jalb qilinishi va kuzatilishi kerak.

Ijtimoiy muhit ijodiy shaxsni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Garchi atrof-muhit ijodiy qobiliyatga ega shaxsni "yaratmasa" ham biroq iste'dodni namoyon etishda 95% ta'sir ko'rsatish hususiyatiga ega bo'lib uning 5% - irsiy determinantlarga bog'liq deb qaraladi.

Ijtimoiy muhitning talablari, bevosita atrof-muhitga, o'qishga bo'lgan qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishi, yuqori ijodiy salohiyatga ega bo'lmagan bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirishi mumkin.

O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi hamisha ahamiyatli bo'lgani singari bu jarayonlarda foydalaniladigan shakl, metod va vositalar ham doimiy ravishda o'z ahamiyatiga egadir. Maktab bosqichidagi ta'lim o'quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, joiz bo'lsa, mazkur jarayonlarda ilk bilim olish davrlaridayoq o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy faoliyatni yanada takomillashtirish lozimligi bugungi kunning kun tartibidagi muammo bo'lishi darkor.

**Adabiyotlar:**

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'quvchisining psixologiyasi. T., O'zbekiston 30 bet.
2. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova "Umumiy psixologiya" Toshkent-2009
3. Барышева Т.А. Диагностика эстетического развития личности. – С.-Пб., 1999.
4. Введение в психодиагностику / Под ред. К.М.Гуревича, Е.М.Борисовой. – М., 1999.
5. Межиева М.В. Развитие творческих способностей у детей 5 – 9 лет. – Ярославль, 2002.